

ISSN 2181-2764
2025



Google
Scholar



Crossref



SHARQ TA'LIMI JURNALI

**ВОСТОЧНЫЙ ЖУРНАЛ
ОБРАЗОВАНИЯ**

**ORIENTAL JOURNAL
OF EDUCATION**

2025-yil 29-mart kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bo‘lib o‘tgan **“O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yakunlari asosida saralangan maqolalar **“Sharq ta’limi jurnali”** (ISSN: 2181-2764)ning 2025-yil 3-sonida chop etildi.

По итогам международной научно-практической конференции на тему **«Современное состояние и перспективы сотрудничества между Узбекистаном и Кореей»**, состоявшейся 29 марта 2025 года в Ташкентском государственном университете востоковедения, отобранные статьи были опубликованы в 3-м номере 2025 года научного журнала **«Sharq ta’limi jurnali»** (ISSN: 2181-2764).

Based on the outcomes of the international scientific-practical conference entitled **“The Current State and Prospects of Cooperation between Uzbekistan and Korea”**, held on March 29, 2025, at Tashkent State University of Oriental Studies, selected articles were published in Issue 3 (2025) of the scientific journal ***Sharq ta’limi jurnali*** (ISSN: 2181-2764).

2025년 3월 29일, 타슈켄트 국립 동방대학교에서 개최된 **“우즈베키스탄과 한국 간 협력의 현재와 전망”**이라는 주제의 국제 학술 실무 회의 결과를 바탕으로 선정된 논문들이 학술지 ***Sharq ta’limi jurnali*** (ISSN: 2181-2764) 2025년 제3호에 수록되었습니다.

<i>Ватно Миршарипова</i>	TARJIMADA TARIXIY-MILLIY O'ZIGA XOS SO'ZLARNING IFODALANISHI (ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI TARJIMASI ASOSIDA)	125-131
<i>Ug'loy Xujaeva</i>	KOREYS TILINI O'QITISHDA MADANIYAT MASALALARI	132-139
<i>Gulshoda Yunusova</i>	KOREYS TILIDA ㄱ-ko-makchi FE'LNING FUNKSIONAL EKVIVALENTLARI	140-145
<i>Виктория Шин</i>	СИМВОЛИКА ОГНЯ В РОМАНЕ ЛИ САНА «12 ДЕКАБРЯ»	146-152
<i>Марьям Зайдуллина</i>	ФОРМИРОВАНИЕ НОВОГО ЛЕКСИЧЕСКОГО ЗАПАСА В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ ПОД ВЛИЯНИЕМ ЦИФРОВОЙ ЭПОХИ	153-157
<i>Татьяна Ким</i>	ЭВФЕМИЗМЫ В КОРЕЙСКОМ МЕДИАТЕКСТЕ	158-163
<i>Малика Хасанова</i> <i>Наталья Ким</i>	ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КОРЕЕВЕДЕНИИ: ДИАЛОГ ПРОШЛОГО И БУДУЩЕГО	164-169
<i>Umida Saydazimova</i> <i>Durdona Murodova</i> <i>Nodirbek Karimov</i>	QAQNUS TIMSOLIDA INSON RUHIYATI TASVIRI	170-178
<i>Наталья Ким</i> <i>Марьям Зайдуллина</i>	ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА НА КОММУНИКАТИВНОМ УРОВНЕ (на материале изучения корейского языка в Узбекистане)	179-185

BOSH MUHARRIR: R. Sh. Berdiqulov– *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat pedagogika universiteti*

TAHRIR HAY'ATI:

<i>U. Saydazimova</i>	<i>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d., professor</i>
<i>N. Kim</i>	<i>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d., professor</i>
<i>G. Yunusova</i>	<i>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori dotsenti, (PhD)</i>
<i>N. Muhitdinova</i>	<i>Samarqand davlat universiteti professori, f.f.d., professor</i>
<i>I. Abdullayev</i>	<i>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)</i>
<i>U. Safarov</i>	<i>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)</i>
<i>U. Mavlyanov</i>	<i>Guliston davlat universiteti “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquqiy ta'lim” kafedrasi mudiri, PhD</i>
<i>Y. Parmanov</i>	<i>Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti “Boshlang'ich va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish innovatsion ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi” mutaxassisi. texnika fanlari nomzodi,</i>
<i>Sh. Davronova</i>	<i>Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi</i>

EDITOR-IN-CHIEF: Dr. Ravshanjon Sh. Berdikulov – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Head of the Department of Chemistry, Tashkent State Pedagogical University*

EDITORIAL BOARD:

<i>Prof. Umida Saydazimova</i>	<i>Professor of Tashkent State University of Oriental Studies, DSc in Philology, Professor</i>
<i>Prof. Natalya Kim</i>	<i>Professor of Tashkent State University of Oriental Studies, DSc in Philology, Professor</i>
<i>Dr. Gulshoda Yunusova</i>	<i>Associate Professor of Tashkent State University of Oriental Studies (PhD)</i>
<i>Dr. Nazmiya M. Mukhitdinova</i>	<i>Professor of Samarkand State University, DSc in Philology, Professor</i>
<i>Dr. Ilkhom Abdullaev</i>	<i>Associate Professor Doctor of Philosophy in Geography (PhD.) Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan</i>
<i>Dr. Ural Safarov</i>	<i>Associate Professor Doctor of Philosophy in Pedagogics (PhD) Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan</i>
<i>Dr. Umid Mavlyanov</i>	<i>Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences, Head of the Department of “National Idea, Spiritual Foundations and Legal Education” Gulistan State University, Uzbekistan</i>
<i>Dr. Abdulla Parmanov</i>	<i>Candidate of Technical Sciences, Specialist of “Innovative Research Laboratory for Development of Primary and Preschool Children” at</i>

	<i>the Institute for Retraining and Advanced Training of Directors and Specialists of Preschool Education Organizations.</i>
<i>Dr. Shakhlo Davronova</i>	<i>Associate Professor, Pedagogical Sciences in PhD Bukhara State Medical Institute, Uzbekistan</i>

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: Р. Ш. Бердикулов – доктор философии по педагогическим наукам (PhD), заведующий "кафедрой химии" Ташкентского государственного педагогического университета.

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

<i>У. Сайдазимова</i>	<i>Профессор Ташкентского государственного университета востоковедения, доктор филологических наук (DSc), профессор</i>
<i>Н. Ким</i>	<i>Профессор Ташкентского государственного университета востоковедения, доктор филологических наук (DSc), профессор</i>
<i>Г. Юнусова</i>	<i>Доцент Ташкентского государственного университета востоковедения, кандидат филологических наук (PhD)</i>
<i>М. Мухитдинова</i>	<i>Профессор Самаркандского государственного университета, доктор филологических наук (DSc), профессор</i>
<i>И. Абдуллаев</i>	<i>Доцент (PhD), Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами</i>
<i>У. Сафаров</i>	<i>Доцент Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами (PhD)</i>
<i>У. Мавлянов</i>	<i>доктор философских наук, заведующая кафедрой "Национальная идея, основы духовности и правовое воспитание" Гулистанского государственного университета</i>
<i>Э. Парманов</i>	<i>Специалист Института переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных организаций "Инновационная научно-исследовательская лаборатория развития детей младшего и дошкольного возраста", кандидат технических наук.</i>
<i>Ш. Давронова</i>	<i>Доцент Бухарского государственного медицинского института, кандидат педагогических наук</i>

Oriental Journal of Education



FUNCTIONAL EQUIVALENTS OF THE AUXILIARY VERB 대다 IN THE KOREAN LANGUAGE

Gulshoda Yunusova*Associate Professor, PhD**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: gulyamir9@gmail.com*

ABOUT ARTICLE

Key words: Korean language, auxiliary verb, functional equivalent, translation theory, semantics, pragmatics.

Received: 26.04.25**Accepted:** 28.04.25**Published:** 01.05.25

Abstract: This article analyzes the functional equivalents of the auxiliary verb 대다 in the Korean language. This verb serves as one of the means to express the repetitiveness, intensity, and duration of an action. The article examines the comparison of this verb with other grammatical constructions, issues of equivalence in the translation process, and corresponding forms in other languages. Through examples, the role of 대다 in speech and its functional characteristics are highlighted.

KOREYS TILIDA 대다 KO'MAKCHI FE'LINING FUNKSIONAL EKVIVALENTLARI

Gulshoda Yunusova*dotsent, PhD**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston**E-mail: gulyamir9@gmail.com*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: koreys tili, ko'makchi fe'l, funksional ekvivalent, tarjima nazariyasi, semantika, pragmatika.

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tilidagi 대다 ko'makchi fe'lining funksional ekvivalentlari tahlil qilinadi. Ushbu fe'l koreys tilida harakatning takroriyliigi, intensivligi va davomiyligini ifodalovchi vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada ushbu fe'lining boshqa grammatik konstruksiyalar bilan taqqoslanishi, tarjima jarayonidagi ekvivalentlik muammolari va boshqa tillardagi mos keluvchi shakllar tadqiq etiladi. Misollar orqali 대다 fe'lining nutqdagi o'mi va funksional xususiyatlari yoritiladi.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЭКВИВАЛЕНТЫ ВСПОМОГАТЕЛЬНОГО ГЛАГОЛА 대다 В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Гулиода Юнусова

Доцент, PhD

Ташкентского государственного университета востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: guliyamir9@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: корейский язык, вспомогательный глагол, функциональный эквивалент, теория перевода, семантика, прагматика.

Аннотация. В данной статье анализируются функциональные эквиваленты вспомогательного глагола 대다 в корейском языке. Данный глагол выступает как одно из средств выражения повторяемости, интенсивности и длительности действия. В статье рассматривается сравнение этого глагола с другими грамматическими конструкциями, проблемы эквивалентности в процессе перевода, а также соответствующие формы в других языках. На основе примеров освещаются место глагола 대다 в речи и его функциональные особенности.

Kirish. Tilshunoslikda funksional ekvivalentlik deganda turli tillardagi leksik, grammatik yoki sintaktik birliklarning vazifaviy jihatdan mos kelishi, ya'ni bir til birliklarining boshqa til birliklari bilan kontekstga qarab funksional jihatdan almashtirilishi tushuniladi. Bu tushuncha ayniqsa tarjima nazariyasida va kontrastiv tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Funksional ekvivalentlik ma'nolarni to'g'ri yetkazish, grammatik va pragmatik moslikni saqlash uchun ishlatiladi. Masalan, koreys tilidagi 대다 ko'makchi fe'lining boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri grammatik ekvivalenti bo'lmasligi mumkin, lekin uning funksiyasiga mos keluvchi turli vositalar topilishi mumkin. Leksik ekvivalentlikda so'zma-so'z moslik emas, balki ma'no va funksiyaga mos keluvchi so'z yoki iboralarni tanlash tushunilsa, grammatik ekvivalentlikda turli tillardagi morfologik va sintaktik strukturalarning funksional jihatdan mos kelishi tushuniladi. Pragmatik ekvivalentlikda esa, matnning kontekst, nutq vaziyatlari va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda to'g'ri tushunilishini ta'minlashi muhim. Ekvivalentlik tushunchasi bo'yicha ko'p tadqiqotlar mavjud [9,17,5].

Asosiy qism. Funksional valentlik masalasida obyekt qilib koreys tilida mavjud 대다 fe'li, xususan, mazkur fe'lining ko'makchilik xususiyatini tahlil qilish maqsad qilindi.

대다 fe'lining o'z ma'nosiga ahamiyat qaratish ham muhim. 대다 harakat jarayonini tavsiflovchi fe'li «teginmoq, suyanmoq; to'xtatmoq, birlashtirmoq, tikmoq; solishtirmoq; yetkazmoq, tan olmoq kabi ma'nolarni ifodalaydi [이희승. 2002. – P. 563.]. 대다 ko'makchi fe'l vazifasida yetakchi fe'lga -아/-어/-여 [-a/eo/yo] bog'lovchi affiksi yordamida birikadi. So Sing Xyon, Chxve

Xyon Be, So Jong Suning fikricha, 대다 ko'makchi fe'li ma'noni kuchaytirish xususiyatiga ega [12,11,13]. Masalan:

아기는 울어 대요. *Bola yig'lab yotibdi.*

Keltirilgan gapda 울어 대요 «yig'lab yotibdi» ko'makchi fe'li birikmada bolaning yig'lashi takroriy bo'lib, bir paytning o'zida yig'lash harakatining zo'rayishi, kuchayishini ham ifodalangan.

그는 쉬지 않고 계속 먹어 댄다 [Son, S. M. (손세모름). (1996). – P. 176].

U dam olmasdan tinmay ovqatlanib yotibdi.

Yuqoridagi gapda 대다 ko'makchi ovqatlanish holati tinmay davom etishini bildiradi va harakatni kuchli ottenka bilan ifodalaydi. Ushbu gapdagi fe'l harakatni kuchli ottenka bilan ifodalaydi. *Ovqatlanib yotibdi* deganda davomlilik ma'nosi sezilsa-da, uni harakat davomiyligini ifodalovchi 있다 [itta] fe'li bilan adashtirmaslik lozim. Ushbu gapda davomlilik harakatning, ya'ni yeyishning borgan sari kuchayib borishi ma'nosini bildiradi.

So Jong Su ko'makchi fe'llar bo'yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, ularda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'g'risida to'xtalib o'tgan. U Chxve Xyon Bening qarashlarini quyidagicha sharhlaydi: «Chxve Xyon Be harakat takrorini ifodalaydigan ko'makchi fe'llarni «ta'kid ko'makchi fe'llari» deb qayd qilgan. Buning sababi mazkur ko'makchi fe'llar qatnashgan gaplarda yetakchi fe'l ifodalagan ish-harakatning takrorlanishi natijasida ma'no kuchayishi yuz beradi. Shuningdek, «ta'kid» (강조) natijasining turlicha ifodalanishi sababli bu terminning o'rinsiz qo'llanilish tendensiyalari ham mavjud».

아/어/여 대다 ko'makchi fe'li harakatning takrorlanishini, davomiyligini yoki ortib borishini ifodalaydi. Bundan tashqari, u harakatning zo'rayishini va normadan ortib ketishini ham anglatishi mumkin. Shu sababli, ushbu ma'noni ifodalashi mumkin bo'lgan boshqa vositalarni quyidagi kategoriyalar bo'yicha ajratib chiqamiz.

Koreys tilida harakatning takrorlanishi, davomiyligi va kuchayishini ifodalashda turli grammatik qurilmalar qo'llaniladi. Ushbu maqolada -고 또 -고, -아/어/여 대다, -아/어/여 버리다 va -아/어/여 치우다 kabi grammatik shakllar tahlil qilinadi hamda ularning 대다 fe'li bilan semantik jihatdan bog'liqligi o'rganiladi. Bu qurilmalar harakatning takroriylikini yoki kuchayishini ifodalashda muhim vositalar hisoblanadi. Ammo ularning har biri o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, nutqiy kontekstga qarab farqlanadi.

1. -고 또 -고 (Takroriy harakatni ifodalash). Ushbu grammatik qurilma harakatning ko'p bora takrorlanishini ifodalaydi [Choi, 2010; Yun, 2012]. 대다 fe'li bilan ma'no jihatdan yaqin bo'lishi mumkin, lekin kuchayish ma'nosiga ega emas. Masalan: 그는 먹어 대다. → 그는 먹고 또 먹는다. (U tinmay ovqatlanib yotibdi). 먹고 또 먹는다 orqali ovqatlanish harakatining takroriyli

ifodalangan. 대다 fe'li orqali ifodalangan kuchayish va haddan oshish ma'nosi bu konstruksiyada yo'q.

Bundan tashqari, 대다 fe'li nafaqat takroriylikni, balki ushbu harakatning normadan ortib ketganligini ham anglatadi. Biroq, -고 또 -고 bunda bevosita ishtirok etmaydi.

2. -아/어/여 대다 → -아/어/여 버리다 (Haddan oshish va normadan chiqish)

-아/어/여 버리다 odatda harakatning yakunlanishini bildiradi, lekin ba'zan harakatning kuchayishi va haddan tashqari bo'lishi ma'nolarini ham anglashi mumkin [Seo, 2012]. Misol qilib quyidagi jumlaning keltiramiz: 그 아이가 울어 댔다. → 그 아이가 울어 버렸다. (Bola yig'lab yubordi.)

-아/어/여 버리다 harakatning natijaviy yakun topishini bildiradi. 대다 fe'li esa harakatning davomiylikni va takroriylikni ifodalaydi.

Shuningdek, 버리다 fe'lining asosiy vazifasi hodisaning ortiqcha yoki yoqimsiz yakun topganligini bildirishdir. 대다 esa jarayonning o'ziga e'tibor qaratadi, bu esa ularning semantik jihatdan farqlanishiga sabab bo'ladi.

3. -아/어/여 치우다 (Harakatning shiddatli va tez amalga oshirilishi)

Ba'zan -아/어/여 치우다 shakli ham 대다 bilan semantik jihatdan mos kelishi mumkin, chunki u ham harakatning kuchayishini ifodalaydi: 그는 계속 먹어 댔다. → 그는 계속 먹어 치운다. (U tinmay ovqatni "supurib" tashlayapti.)

-아/어/여 치우다 harakatning tez amalga oshirilishini bildiradi.

Biroq, bu konstruksiyada takroriylik ma'nosi zaifroq bo'lib, 대다 ning to'liq ekvivalenti hisoblanmaydi [Son, 1996]. 치우다 fe'li odatda harakatni tugatish yoki undan xalos bo'lish ma'nosini ham bildiradi, bu esa uni 대다 bilan taqqoslashda cheklovlar qo'yadi. 대다 ning o'mida ishlatilishi mumkin bo'lgan ayrim fe'llar mavjud bo'lib, ular ko'pincha harakatning takrorlanishini, davomiylikni yoki kuchayishini ifodalaydi.

4. 반복하다 (Takrorlamoq)

Ushbu fe'l harakatning takrorlanishini bildiradi va 대다 fe'lining takroriylik ma'nosiga mos kelishi mumkin: 그는 계속 떠들어 댔다. → 그는 계속 떠들기를 반복한다. (U tinmay shovqin qilmoqda.) 반복하다 harakatning takrorlanishini bildiradi, lekin unda hissiy kuchayish yo'q [Seo, 2012]. 대다 fe'li esa harakatning haddan oshishini ham ifodalaydi. 반복하다 akademik yoki neytral nutqda qo'llanadigan fe'l bo'lib, 대다 esa ko'proq emotsional kontekstda ishlatiladi.

5. 마구 (ravish) (Normadan ortiq, haddan tashqari)

마구 ravishi ham ba'zan 대다 ning ma'nosiga mos kelishi mumkin: 그는 쉬지 않고 계속 먹어 댄다. → 그는 마구 먹는다. (U haddan tashqari ovqat yemoqda.)

마구 harakatning chegaradan chiqib ketishini bildiradi, bu ma'no jihatidan 대다 ning kuchaytirish xususiyatiga yaqin. Lekin, 마구 mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin bo'lsa-da, 대다 harakat fe'liga bog'lanib keladi va grammatik jihatdan mustaqil emas.

Xulosa. Tilshunoslikda funksional ekvivalentlik tushunchasi turli tillardagi leksik, grammatik va sintaktik birliklarning vazifaviy jihatdan mos kelishini anglatadi. Bu tushuncha tarjima nazariyasi va kontrastiv tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada koreys tilidagi 대다 ko'makchi fe'lining funksional ekvivalentlik jihatlari tahlil qilindi.

대다 ko'makchi fe'li harakatning takrorlanishi, davomiyligi yoki ortib borishini ifodalovchi grammatik vosita bo'lib, u shuningdek, harakatning haddan tashqari kuchayishini bildirishi mumkin. Mazkur fe'lining ekvivalentlari sifatida koreys tilidagi turli grammatik qurilmalar, jumladan -고 또 -고, -아/어/여 대다, -아/어/여 버리다, -아/어/여 치우다 shakllari hamda 반복하다 fe'li va 마구 ravishi ko'rib chiqildi.

-고 또 -고 grammatik konstruksiyasi harakatning takroriyligini bildirsa-da, unda kuchayish ma'nosi mavjud emas. -아/어/여 대다 esa harakatning ortib borishini va normadan chiqishini ham ifodalaydi. -아/어/여 버리다 shakli harakatning yakunlanishini bildirsa-da, ba'zan uning ortiqcha yoki haddan tashqari bo'lishi ma'nosini ham anglatadi. -아/어/여 치우다 esa harakatning tez amalga oshirilishini ifodalashda qo'llaniladi.

Shuningdek, 반복하다 fe'li harakatning takrorlanishini bildiruvchi neytral nutq birligi sifatida foydalaniladi, biroq u 대다 fe'lining kuchaytirish ma'nosini to'liq o'zida aks ettirmaydi. 마구 ravishi esa harakatning chegaradan chiqib ketishini bildiruvchi leksik vosita bo'lib, ba'zan 대다 ning semantik jihatdan ekvivalenti sifatida ishlatilishi mumkin.

Yuqoridagi grammatik va leksik vositalar koreys tilidagi 대다 fe'lining funksional ekvivalentlarini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Harakatning takroriyligi, davomiyligi va kuchayishini aks ettiruvchi ushbu vositalar kontekstga qarab turlicha qo'llaniladi. Shu sababli, tarjimada yoki kontrastiv tahlillarda ularning semantik va pragmatik farqlarini hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtiyorov, U. (2018). Kontrastiv tilshunoslik va tarjima nazariyasida funksional ekvivalentlik. O'zbek tilshunoslik jurnali, 25(1), 34-47.
2. Bybee, J., Perkins, R., & Pagliuca, W. (1994). The evolution of grammar: Tense, aspect, and modality in the languages of the world. University of Chicago Press.

3. Choi, H. B. (최희봉). (2010). 강조 보조동사의 의미와. *한국언어학회 논문집*, 35(2), 123-145.
4. Haspelmath, M. (2001). Auxiliary verb constructions. *Language Typology and Language Universals*, 2, 1139-1158.
5. Jakobson, R. (1959). *On linguistic aspects of translation*. Harvard University Press: Cambridge.
6. Kim, M. J. (김민정). (2016). 한국어의 강조 표현과 그 의미적 분석. *국제언어학저널*, 42(3), 56-78.
7. Lee, J. W. (이정우). (2008). 번역에서 기능적 등가성. *번역학연구*, 17(4), 201-225.
8. Левицкий, Р. (1984). О принципе функциональной адекватности перевода. Москва.
9. Mahmudov, N. (2019). "Hozirgi o'zbek tilida modal mazmun ifodalovchi birliklar". *Til va adabiyot tadqiqotlari*, 4(62), 15-28.
10. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating*. Niderlandiya: E.J. Brill.
11. Seo, J. S. (서경수). (2012). 한국어 문법에서 반복성과 강조의 표현 방식. *언어학 연구*, 28(1), 89-110.
12. So, S. H. (소승현), Choi, H. B. (최희봉), & Seo, J. S. (서경수). (2015). *한국어 보조동사 연구*. 서울: 한글출판사.
13. Son, S. M. (손세모들). (1996). *국어 보조용언 연구*. 서울: 한국문화사.
14. Xo'jamqulov, A. (2008). *O'zbek tilida yordamchi fe'llarning grammatikasi*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
15. Yun, H. S. (윤현수). (2012). *Korean auxiliaries and their grammaticalization paths*. Seoul: Hankook Publishing.
16. Yunusova, G. D. (2023). *Koreys tilida ko'makchi fe'llar*. Toshkent: Bookmany Print.
17. 이광석. (2006). *한국어 보조동사 연구 [A study on Korean auxiliary verbs]*. 서울: 학문사.
18. 이희승. (2002). *국어 사전*. 서울: 민중서림.
19. 국립국어대사전. (1999). *표준국어대사전*. 서울: 부산동아.
20. 서승현. (1994). *용언 + 지다/대다' 구조에 관한 연구*. 서울: 답흥판사.
21. 한글학회. (1992). *우리말 큰사전*. 서울: 어문각.